PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01-RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

RAXMANOV AHLIDDIN XABIBULLOEVICH

OLMA BOG‘LARIDA FITOFAG KANALAR (*TETRANYCHIDAE*) BIOEKOLOGIYASI VA ULAR SONINI BOSHQARISHNING SAMARALI USULLARI

06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish

QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT–2026

UO‘T: 632.5.06.07:632.93.3

Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертатции доктора философии (PhD) по селскохозяйственним наукам

Table of Contents of Doctor's Dissertation Abstract (PhD) in Agricultural Sciences

Raxmanov Axliddin Xabibulloevich
Olma bog‘larida fitofag kanalar (*Tetranychidae*) bioekologiyasi va ular sonini boshqarishning samarali usullari…….....3

Рахманов Ахлиддин Хабибуллоевич
Биоэкология фитофаговых клещей (*Tetranychidae*) в яблоневых садах и эффективные методы управления их численностью.....21

Rakhmanov Ahliddin Khabibulloevich
Bioecology of phytophagous mites (*Tetranychidae*) in apple orchards and effective methods of their population management…….....39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....43

PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01-RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

RAXMANOV AHLIDDIN XABIBULLOEVICH

OLMA BOG‘LARIDA FITOFAG KANALAR (*TETRANYCHIDAE*) BIOEKOLOGIYASI VA ULAR SONINI BOSHQARISHNING SAMARALI USULLARI

06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish

QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent–2026

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2025.3.PhD/Qx634 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psuyaiti.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyo.net.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Anorbayev Azimjon Raimqulovich** qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Eshchanov Bahodir Ro'zimboyevich** qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent
	Маматов Камол Шавкиевич qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 11-sentabr dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, O'zPITI ko'chasi, PSUYEAITI. Tel.: (+99878) 150-62-84; faks: (+99871) 150-61-37; e-mail: paxtauz@gmail.ru

Dissertatsiya bilan Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№21 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, O'zPITI ko'chasi, PSUYEAITI. Tel.: (+99878) 150-62-84; факс: (+99871) 150-61-37;

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 11-sentabr da tarqatildi.
(2026 yil 11-sentabr dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).

SH.N.Nurmatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

F.M.Hasanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.n.,professor

J.H.Axmedov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi kunda aholi sonining o‘sib borishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash qishloq xo‘jaligi ekinlari, xususan, mevachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishni talab etmoqda. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida jami olma bog‘larining maydoni 4,82 million gektarni tashkil etib, ulardan olinayotgan o‘rtacha hosildorlik 193 s/ga atrofida baholanmoqda. Biroq, global iqlim o‘zgarishlari va agrobiosenozlardagi transformasiyalar oqibatida olma bog‘larida fitofag kanalarning (*Tetranychidae*) zarar keltirish darajasi keskin ortib bormoqda. Butunjahon qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tashkiloti (FAO) ma’lumotlariga ko‘ra, qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirish jarayonida ularning kasallik va zararkunandalari zarari oqibatida o‘rtacha 30 % hosildorlik yo‘qotiladi, ya’ni bu zarar 1,4 trillion AQSH dollariga teng deb baholanmoqda»[1]. Rivojlangan xorijiy ilg‘or mamlakatlarda Yaponiya, Gollandiya, Shveytsariya, Italiya, Fransiya, Germaniyaning urug‘ mevali bog‘larida uchrab zarar keltiradigan fitofag kanalarning biologik xususiyatlari, tur tarkibi, zarar yekazish darajalari hamda tarqalish arealini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Dunyo miqyosida qishloq xo‘jaligi ekinlarining asosiy zararkunandalari bioekologiyasi, zararlanish darajasi, tur tarkibi, tarqalishi, uyg‘unlashgan kurash tizimi (IPM), entomofag turlarini aniqlagan holda yangi insektoakaritsidlarni biologik samaradorligiga baho berish, qarshi kurash choralarini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Yer yuzi aholisini uzlyuksiz oziq-ovqat bilan ta’minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda zarar keltiradigan zararkunandalarga qarshi uyg‘unlashgan kurash tizimi olib borish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Respublikamizda hozirgi kunda urug‘ mevali bog‘larning umumiy maydoni 270 ming gektardan ortiq, shundan intensiv bog‘ maydonlari esa 44 ming gektarni tashkil qiladi. Jumladan, 9 501 (intensiv 1291) gektari maydon Surxondaryo viloyatiga, 22940 (intensiv 4370) gektar maydon esa Toshkent viloyatiga to‘g‘ri keladi. Qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish, xususan aholining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini to‘la qondirish bo‘yicha keng ko‘lamdagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23 oktabr 2023-yildagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” [2] farmonidagi vazifalarda Respublikamizda bog‘dorchilikni yanada rivojlantirish, meva-sabzovot mahsulotlari bilan uzlyuksiz ta’minlash hamda sifatli, eksportbob meva mahsulotlarini yetishtirish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Biroq olma mevali bog‘larda yetishtirilayotgan olma mevalarining bir qismi haligacha zararkunandalar va kasalliklar tomonidan nobud bo‘lishi va ularga qarshi kurash tizimini takomillashtirish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

[1] https://www.fao.org/newsroom/detail/Climate-change-fans-spread-of-pests-and-threatens-plants-and-crops-new-FAO-study/zh

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PF-6262-son “Respublikada o‘simliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni, 2024-yil 5-apreldagi PQ-113-son «2024-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 19-avgustdagi “Eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda biologik himoya usulini qo‘llashni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 460-son qarori hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» ustivor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda fitofag kanalarning tur tarkibini F.M Uspenskiy, N.N Kuznetsov, I.Yu Sizova, fitofag kanalarga qarshi entomofaglarni qo‘llash X.X.Kimsanboyev, S.N Alimuxammedovlar, kanalarning rivojlanish davrida oltingugurt asosli preparatlarni qo‘llab ilmiy izlanishlar B.Boltaevlar tomonidan olib borgan. Olma mevali bog‘larda uchraydigan kanalarga qarshi kimyoviy preparatlarning samaradorligini aniqlashda Sh.T.Xo‘jayev, X.M.Shukurovlar tadqiqotlar olib borishgan. Mevali bog‘larda fitofag va yirtqich kanalarni tur tarkibi, ularning rivojlanishiga xavo-haroratining ta’siri, ularga qarshi preparatlarning samaradorligini o‘rganishda xorijlik olimlardan M.Arbabi, S.Ouassat, M.Shahrokhi, H.Zhang, M.Mirzaei, P.Lester, H.Kishimoto, J.Khajehali va I.Kasap uzoq yillar ilmiy izlanishlar olib borgan. C.Jung, F.Jafarian, A.Harris, J.Hardman, J.Davies, A.Cuthbertson, K.Choi, F.Canassa, N.Bensoussan, G.Young, E.Ashraf, R.Elham, A.Deirdre, N.Prischman tomonidan olma mevali bog‘larda fitofag kanalarning daraxt navlari bo‘yicha zarar keltirish darajasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. MDH mamlakatlari olimlaridan I.Z.Livshis, V.I.Mitrofanov, Z.I.Strunkovalar tomonidan qishloq xo‘jaligi ekinlarida uchraydigan fitofag kanalar turlarini aniqlagichini yaratishgan.

Respublikamiz hududida etishtirilyotgan olma mevali bog‘larda fitofag kanalarning zarar yetkazish darajasi yuqori bo‘lib qolmoqda, bu zararkunandalarning bioekologiyasi, sistematikasi va ularning tabbiy kushandalari, yirtqich kanalarning turlari, rivojlanishi hamda kanalar sonini boshqarishdagi ahamiyati yetarlicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilmagan. Tadqiqotlarimizda Toshkent va Surxondaryo viloyatlari olma mevali bog‘larda fitofag kanalarning bioekologiyasi, zararlash darajasi, geografik areali, rivojlanishi, tabiiy kushandalari va ularni ko‘paytirish, qo‘llash muddatlarini aniqlash va boshqa samarali usullarni qo‘llash ko‘zda tutilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya

tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Olma bog‘larida kanalar (*Tetranychidae*) bioekologiyasi va ular sonini boshqarish usullari” mavzusiga bog‘liq holda bajarilgan (2019-2022-yillarda).

Tadqiqotning maqsadi. Olma mevali bog‘larda fitofag kanalarning (*Tetranychidae*) tur tarkibi, bioekologik rivojlanish xususiyatlari, tarqalishi va zararlilik darajasini aniqlash hamda ular sonini boshqarishning samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

olma bog‘larida mavjud *Tetranychidae* oilasiga mansub fitofag kanalarning tur tarkibi, bioekologik xususiyatlari, tarqalishi va zarar keltirish darajasini aniqlash;

olma mevali bog‘larda fitofag kanalar soniga ekologik omillar hamda agrotexnik tadbirlar ta’sirini aniqlash;

olma agrobiotsenozda uchraydigan *Parasitoformes, Coleoptera, Hemiptera, Neuroptera* turkumlariga oid tabiiy kushandalarning turlari va fitofag kanalarning sonini kamaytirishda biologik kurash usulini ishlab chiqish;

olma mevali bog‘larida kanalarining iqtisodiy zarar miqdor mezoniga asoslangan holda, ularga qarshi kurash choralarini ilmiy asoslangan muddatlarini belgilash;

olma mevali bog‘larda uchraydigan fitofag kanalarga qarshi kurashda Sipermetrin, Geksitiazoks, Spirodiklofen, Bifenazat, Xlorpirifos hamda Lyambda-Sigalotrin ta’sir etuvchi moddasiga ega preparatlarning toksik qoldiq miqdorini aniqlash;

olma mevali bog‘larida uchraydigan o‘rgimchakkanalarga qarshi uyg‘unlashgan kurash tizimini qo‘llash hamda qo‘llanilgan o‘simliklarni himoya qilish vositalarining biologik, xo‘jalik va iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida olmaning golden delicious, pink lady, fuji, renet simirenko va beshyulduz navlari hamda ularda uchraydigan fitofag kanalar, yirtqich entomofaglar va o‘simliklarni himoya qilish vositalari olingan.

Tadqiqotning predmeti etib, olmani etishtirish agrotexnologiyalari, fitofag kanalarning bioekologik hususiyatlari, ularni aniqlash usullari, tadqiqot hududining ekologik sharoiti, kimyoviy va biologik vositalarni qo‘llash usullari olingan.

Tadqiqot usullari. Fitofag kanalarning tarqalishi, tur tarkibi, sistematik tahlili F.M.Uspenskiy, I.V.Mitrafanov, S.N.Alimuxammedov, tabiiy kushandalar, akarifaglar va biologik vositalarni qo‘llash usullari bo‘yicha X.X.Kimsanboyev, A.SH.Xamrayev, olma mevali bog‘larda fitofag kanalar hamda entomofaglarni dominant turlarini, sifat ko‘rsatkichlarini V.P Adashkevich, K.K.Fasulati, Z.Livshis, Z.I.Strunkova G.F.Rekk, N.V.Bondarenkolar uslubi asosida aniqlangan. Kimyoviy vositalardan insektoakaritsid, akaritsidlarni qo‘llash bo‘yicha Sh.T.Xo‘jayev uslubiy ko‘rsatmalar asosida olib borilgan. Mevali bog‘larda kanalarga qarshi qo‘llanilgan mikrobiologik hamda kimyoviy preparatlarning biologik samaradorligini aniqlash uchun W.S.Abbot formulasidan foydalanib aniqlangan. O‘tkazilgan tadqiqotlarni xo‘jalik va iqtisodiy samaradorlik K.A.Gar,

A.F.Chenkin uslubiy yordamida olingan, ma’lumotlarga matematik-statistik ishlov berish Microsoft Excel dasturida B.A.Dospexov uslubi asosida aniqlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

olma mevali bog‘ agrobitsenozida mavjud *Acariphormes* turkumiga mansub zararkunandalarning 6 turi aniqlanib, *Panonychus ulmi* Koch, *Tetranychus viennensis* Zacher, *Bryobia redikorzevi* Rech, *Tetranychus urticae* Koch, *Schizotetranychus pruni* Oudms, *Tetranychus turkestani* Ug. Et Niklar turlarining tarqalishi, zarari xamda bioekologik rivojlanish xususiyatlari aniqlangan;

fitofag kanalarning barg sirtidagi zichligi va zarar darajasi olma navlariga ko‘ra farqlanishi aniqlanib, qishlaydigan urg‘ochilarining dominantlik darajasi 72-80 % ni tashkil etishi va eng yuqori zararlilik ko‘rsatkichi vegetatsiyaning iyul-avgust oylariga to‘g‘ri kelishi aniqlangan;

olma mevali bog‘ agrobitsenozida foydali entomofag hasharotlarning 6 oilaga mansub 11 turi uchrashi aniqlangan, shuningdek, kanalarga qarshi 1 ta bargda o‘rtacha 3–5 tagacha kana (tuxum yoki lichinka) uchraganda, bog‘dagi harorat +10 +11°C dan yuqori bo‘lganda, entomofaglarni 1:10, 1:15, 1:20 nisbatlarda tarqatilganda 85,4%-87,8 biologik samaradorlik aniqlangan;

olma agrobiotsenozida uchraydigan fitofag kanalarga qarshi kurash choralarining ilmiy asoslangan muddatlari belgilangan;

olma mevali bog‘larni bargidan oziqlantirishda kanalar sonining o‘zgarishiga ta’siri aniqlangan;

olma mevali bog‘larda uchraydigan o‘rgimchakkanalarga qarshi kurashda Sipermetrin, Spirodiklofen, Bifenazat, Xlorpirifos hamda Lyambda-Sigalotrin ta’sir etuvchi moddasiga ega preparatlarning toksik qoldiq miqdori aniqlangan;

olma mevali bog‘ (*Malus domestica*) ekinlarida uchraydigan kanalarga qarshi uyg‘unlashgan kurash tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotlarning amaliy natijalari. Respublikamizning Toshkent va Surxondaryo viloyatlaridagi olma mevali bog‘larda to‘rt juft oyoqli kanalar (*Tetranychidae*) oilasiga mansub 6 tur kanalar rivojlanib zarar keltirishi aniqlangan.

Fitofag kana turlari orasida olma qizil kanasi hamda oddiy o‘rgimchakkanalar dominant tur sifatida, kanalar bilan oziqlanadigan akarifag xasharotlarning 10 turi va yirtqich kanalarning 2 turi aniqlangan.

Olma mevali bog‘larda fitofag kanalarga qarshi yangi kimyoviy preparatlar Xamla-550 EC % em.k (*xlorpirifos + sipermetrin*) (1,0 l/ga), Entovidor 24 % em.k. (*spirodiklofen*) (0,5 l/ga), qo‘llanilganda biologik samaradorlik 85,0-89,2 % bo‘lgan, Lambda-plyus 20 % em.k. (lyambda-sigalotrin) (0,1 l/ga) preparati, Akramayt 48% sus.k. (*bifenazat*) (1,0 l/ga), Omayt 57 % em.k. (*propargit*) (1,5 l/ga) preparatlari biologik samaradorligi aniqlangan va amaliyotga tavsiya etilgan.

TDAU o‘quv-ilmiy tajriba xo‘jaligida Omayt 57 % em.k. (*propargit*) (1,5 l/ga) preparatlari qo‘llanilganda 84,2-91,1 % biologik samaradorlikka erishilgan. Yangi kimyoviy vositalarni kanalarga qarshi qo‘llanilgan holatlarda 1 gektar intensiv olma bog‘idan o‘rtacha 233,5 s dan 307,8 s gacha hosil yetishtirilgan.

Nazoratga nisbatan Entovidor 24 % em.k (*spirodiklofen*) preparati qo‘llanilgan qatorda 1 ga olma bog‘idan o‘rtacha 180,5 s/ga, Lambda-plyus 20 % em.k.

(*lambda-siglotrin*) (0,1 l/ga) preprati qo‘llanilgan qatorda esa o‘rtacha 206,4 s/ga, Akramayt 48% sus.k. (*bifenazat*) (0,75 l/ga) preparati qo‘llanilgan qatorda esa o‘rtacha 201,2 s/ga hosil saqlab qolishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Laboratoriya va dala tajribalarining uslublaridan foydalanilgan holda olingan ma’lumotlarga ishlov berilganligi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelganligi, tadqiqot natijalarning xorijiy va maxalliy tajribalar bilan solishtirilganligi, aniqlangan qonuniyatlar va xulosalar asoslanganligi, olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari matematik-statistik tahlil qilinganligi, tadqiqotlar natijalari respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi, dissertatsiya natijalari Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan etirof etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, Toshkent, Surxondaryo sharoitlarida olma mevali bog‘ agrobitsenozida mavjud *Acariphormes* turkumiga mansub zararkunandalarning 6 turi aniqlanib, *Panonychus ulmi* Koch, *Tetranychus viennensis* Zacher, *Bryobia redikorzevi* Rech, *Tetranychus urticae* Koch, *Schizotetranychus pruni* Oudms, *Tetranychus turkestani* Ug. Et Niklar turlarining tarqalishi, zarari hamda bioekologik rivojlanish xususiyatlari, zarar keltirish darajasi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, olma mevali bog‘ agrobitsenozida uchraydigan fitofag kanalarga qarshi *Beauveria bassiana, spirodiklofen, Lambda-cyhalothrin, bifenazat, propargit* ta’sir etuvchi xususiyatlarga ega mikrobiologik va kimyoviy preparatlarni qo‘llash orqali fermer xo‘jaliklarida hosilni saqlab qolishga va yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Olma bog‘larida fitfag kanalar (*Tetranychidae*) bioekologiyasi va ular sonini boshqarishning samarali usullari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

olma yetishtiradigan fermer xo‘jaliklar uchun olma bog‘larida kanalar (*Tetranychidae*) bioekologiyasi va ular sonini boshqarish usullari nomli tavsiyanoma tasdiqlangan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi 2025-yil 15-oktabr 05/06-04-670-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu tavsiyanoma olma yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida qo‘llanma sifatida xizmat qilmoqda;

fitofag kanalarga qarshi oltinko‘z entomoakarifagi qo‘llanilganda yuqori entomoakarifaglik xususiyatini namoyon qilib, fitofag kanalarga qarshi oltinko‘z entomofagi 1:10 nisbatda Toshkent viloyati Qibray tumanidagi ToshDAU Axborot-maslahat (extension center) markazida (1 ga) olma bog‘ida joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi 2025-yil 15-oktabr 05/06-04-670-son ma’lumotnomasi). Natijada oltinko‘z entomofagi qo‘llanilganda yuqori entomoakarifaglik xususiyatini namoyon qilib, 1:10 (entomofag:zararkunanda) 21-kunda 87,8%gacha biologik samaradorlikga erishilgan;

olma bog‘lariga zarar keltirayotgan fitofag kanalarga qarshi Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani “Zevar” (25 ga), “O‘ljabek” (25 ga), “G‘alaba” (30 ga)

fermer xo‘jaliklarida 80 gektarda joriy qilingan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi 2025-yil 15-oktabr 05/06-04-670-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘rgimchakkanalarga qarshi 85,0-89,2% biologik samaradorlikka erishilgan;

olma bog‘larida uchraydigan fitofag kanalarga qarshi Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani “Turdibayev Qurbonboy” (25,7 ga), “Farodis xirmoni” (16 ga) fermer xo‘jaliklari hamda ToshdAU Axborot-maslahat (extension center) markazida (1 ga) yangi kimyoviy prepartalar Lambda-plyus 20 % em.k (*lyambda-sigalotrin*) preparati 0,1 l/ga meyori, Akramayt 48% sus.k (*bifenazat*) 1,0 l/ga meyori, Omayt 57 % em.k (*propargit*) preparatining 1,5 l/ga meyorlarida jami 42 gektarda joriy qilingan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi 2025-yil 15-oktabr 05/06-04-670-son ma’lumotnomasi). Natijada fitofag kanalarga qarshi 84,2- 88,4% biologik samaradorlikka erishilgan. Olma mevali bog‘larda o‘rgimchakkanaga qarshi qo‘llanilgan usullar va kimyoviy vositalarning nazoratga nisbatan iqtisodiy samaradorligi 1 gektar olma mevali bog‘idan 9,2 mln so‘m sof foyda olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dala va ishlab chiqarish tajribalari har yili Toshkent davlat agrar universiteti maxsus aprobatsiya komissiyasi tomonidan ko‘rikdan o‘tkazilib, ijobiy baxolangan, tadqiqot ishi natijalari xalqaro, mamlakat miqyosidagi turli anjumanlarda, universitet ilmiy kengashida muhokama qilingan va ma’qullangan, shuningdek, 2 ta Respublika hamda 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 1 tasi xorijiy, 3 tasi respublika jurnalda hamda 1 ta tavsiyanoma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Olma bog‘larida kanalar (*Tetranychidae*) bioekologiyasi va ular sonini boshqarishning samarali usullari (adabiyotlar sharhi)»** deb nomlangan birinchi bobida mahalliy va xorijiy ilmiy manbaalar, internet ma’lumotlari, dunyoning yetakchi olimlari ilmiy ishlari natijalari o‘rganilib, urug‘mevali bog‘larda fitofag kanalarga qarshi kurash masalalari hamda yangicha himoya qilish usul va vositalarini qo‘llash imkoniyatlari, bu borada o‘tkazilgan

tadqiqotlarining ahvoli va mavjud muammolarning majmuasi aniqlab berilgan. Fitofag kanalarning tarqalishi, tur tarkibi, sistematik tahlili F.M.Uspenskiy, I.V.Mitrafanov, S.N Alimuxammedov,, tabiiy kushandalar, akarifaglar va biologik vositalarni qo‘llash usullari bo‘yicha X.X.Kimsanboyev, A.SH.Xamrayev, Olma mevali bog‘larda fitofag kanalar hamda entomofaglarni dominant turlarini K.K.Fasulati, Z.Livshis, Z.I.Strunkova G.F.Rekk, N.V.Bondarenkolar uslubi asosida aniqlangan. Kimyoviy vositalardan insektoakaritsid, akaritsidlarni qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar Sh.T.Xo‘jayev uslubiy ko‘rsatmalar asosida olib borilgan. Mevali bog‘larda kanalarga qarshi qo‘llanilgan mikrobiologik hamda kimyoviy preparatlarning biologik samaradorligini aniqlash uchun W.S.Abbot formulasidan foydalanib olingan. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalarining xo‘jalik va iqtisodiy samaradorligi K.A. Gar va A.F.Chenkin, olingan ma’lumotlarga matematik-statistik ishlov berish Microsoft Excel dasturida B.A.Dospexov uslubi yordamida aniqlangan. Dissertatsiyaning **«Tadqiqot o‘tkazilgan hududning tabiy iqlim tavsifi, tadqiqot materiallari va uslublari»** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o‘tkazilgan joyning iqlim sharoiti, tabiiy-geografik va agrometeorologik tavsifi o‘rganilgan va tajriba o‘tkazish sharoiti bo‘yicha ilmiy ish manbalari va ish uslublari ishlab chiqilgan. Toshkent viloyati: Sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarda *pH* ko‘rsatkichi o‘rtacha 7,8 dan 8,3 gacha.

Surxondaryo viloyati: Viloyatning och tusli va taqirli bo‘z tuproqlarida (janubiy va qurg‘oqchil zonalarda) bug‘lanish yuqoriligi hamda ohak (kalsiy karbonat) miqdori ko‘pligi bois *pH* miqdori bir oz yuqoriroq bo‘lib, o‘rtacha 7,9 dan 8,4 gacha (kuchsiz ishqoriydan o‘rtacha ishqoriygacha) o‘zgaradi.

Tadqiqotlar Toshkent viloyatining Qibray, Yuqorichirchiq tumanlarida 2019-2022-yillar oralig‘ida olingan ma’lumotlarga ko‘ra yillik o‘rtacha harorat tadqiqot obyektlarida yillik o‘rtacha havo harorati 14,5°C dan 15,4°C gacha bo‘lgan. Surxondaryo viloyatida eng yuqori yog‘ingarchilik miqdori 2020-yilda kuzatilib, 288,4 mm ni tashkil etdi. 2021-yilda bu ko‘rsatkich minimal darajaga 244,6 mm ga tushgan.

Fitofag kanalarga qarshi qo‘llanilgan kimyoviy vositalarni biologik samaradorligi quydagi formula yordamida aniqlandi.

$$B = \frac{Av - Va}{Av} \text{x } 100 \quad (1)$$

Bu yerda:

B-biologik samaradorlik, %; A- ishlov berishdan oldingi kanalar soni; a – ishlov berilgandan keyingi kanalar soni; V – nazorat (dori sepilmagan)dagi kanalarning soni; v – nazorat variantida, keyingi kunlarda kuzatilgan kanalar soni.

Dissertatsiyaning «**Olma mevali bog‘larda kanalarning bioekologiyasi va entomofaglar, yirtqich kushandalarning tur tarkibi»** deb nomlangan uchinchi bobida Tadqiqotlar natijasida O‘zbekistonning Toshkent va Surxondaryo viloyatlari olma agrobiosenozlarida Acariformers turkumiga mansub fitofag kanalarning 6 ta asosiy turlari aniqlangan. Bular: olma qizil kanasi (*Panonychus ulmi* Koch), do‘lana kanasi (*Tetranychus viennensis* Zacher), qo‘ng‘ir meva kanasi (*Bryobia redikorzevi* Rech), oddiy o‘rgimchakkana (*Tetranychus urticae* Koch), bog‘ o‘rgimchakanasi (*Schizotetranychus pruni* Oudms) va Turkiston o‘rgimchakkanasi

(*Tetranychus turkestani* Ug. et Nik.). Ushbu turlar orasida olma qizil kanasi va oddiy o‘rgimchakkana eng yuqori zichlikka ega bo‘lib, biosenozda dominant turlar sifatida qayd etildi.Fitofag kanalarning rivojlanish dinamikasi va hayotiy jarayonlari ob-havo omillariga, xususan, havo harorati va nisbiy namlikka uzviy bog‘liqdir. Kanalarning jadal ko‘payishi va oziqlanishi uchun +10 +38°C oraliqdagi harorat qulay muhit hisoblanadi. Biroq, yoz oylarida havo harorati +35°C dan oshganda ularning rivojlanish tezligi sezilarli darajada sekinlashadi, +42°C ga yetganda esa fitofag kanalar butunlay harakatlanishdan va barg shirasi bilan oziqlanishdan to‘xtashi keltirilgan. Oddiy o‘rgimchakkananing bir avlodi to‘liq shakllanishi uchun foydali harorat yig‘indisi 172°C ni tashkil etsa, qo‘ng‘ir meva kanasi uchun bu ko‘rsatkich 325–352°C ga teng bo‘lib, uning lichinkalari bahorda +7,2°C haroratda tuxumdan chiqa boshlaydi. Kuz faslida harorat +17°C ga tushganda kanalar diapauzaga (qishlov bosqichiga) o‘tadi. Olma bog‘larida zararli kanalar sonini tabiiy ravishda cheklab turuvchi foydali biotsenoz vakillari ham chuqur o‘rganilgan.

2019–2022-yillarda Surxondaryo viloyati olma bog‘larida fitofag kanalarning uchrash darajasi turlicha namoyon bo‘ldi. Olma agrobiosenozida Oddiy o‘rgimchakkana (*Tetranychus urticae*) 77,4 % va Olma qizil kanasi (*Panonychus ulmi)* 62,5 % uchrash ko‘rsatkichi bilan dominantlik xususiyatini saqlab qolgan. Kulrang meva kanasi (*Bryobia* redikorzevi) 48,4 % hamda Do‘lana kanasi (*Tetranychus* viennensis) 36,2 % holatlarda qayd etilib, biosenozda subdominantlik o‘rnini egallaydi. Nisbatan eng past uchrash darajasi Bog‘ kanasi (26,8 %) va Turkiston o‘rgimchakkanasi (25,9 %) hissalariga to‘g‘ri kelishi aniqlandi. Mazkur holat ushbu hududlarda kanalarga qarshi uyg‘unlashgan kurash (IPM) tizimini rejalashtirishda aynan dominant turlarning bioekologik xususiyatlarini inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval.

Urug‘ mevali darahtlarda fitofag kanalarning uchrash darajasi va sistematik tahlili

(Surxondaryo viloyatlari, Sariosiyo tumani Zevar f/x 2019-2022-yy.)

№	Kana turlari	Uchrash darajasi %
Olma (*Malus domestica*) daraxtida		
1.	Olma qizil kanasi -*Panonychus ulmi* Koch,. (*Metatetranychus ulmi* Koch.)	62,5
2.	Do‘lana kanasi - *Tetranychus viennensis* Zacher.	36,2
3.	Kulrang meva kanasi - *Bryobia redikorzevi* Rech.	48,4
4.	Oddiy o‘rgimchakkana - *Tetranychus urticae* Koch.	77,4
5.	Bog‘ kanasi - *Schizotetranychus pruni* Oudms.	26,8
6.	Turkiston o‘rgimchakkanasi - *Tetranychus turkestani* Ug. Et Nik.	25,9

Izoh: *1–2 ball (kuchsiz zararlanish). 3 ball (o‘rtacha zararlanish). 4–5 ball (kuchli zararlanish).*

Toshkent viloyati olma agrobiosenozida fitofag kanalarning tarkibi va tarqalish darajasi o‘rganilganda, hududda Oddiy o‘rgimchakkana (*Tetranychus urticae*) 72,8 % va Olma qizil kanasi (*Panonychus ulmi*) 58,4 % ko‘rsatkich bilan dominant guruhni tashkil etishi aniqlandi. Qo‘ng‘ir meva kanasi (Bryobia

redikorzevi) 42,6 % va Do‘lana kanasi (*Tetranychus viennensis*) 31,2 % uchrash darajasiga ega bo‘lib, biosenozda subdominantlik xususiyatini namoyon qildi. Eng past ko‘rsatkichlar Bog‘ kanasi (22,5 %) hamda Turkiston o‘rgimchakkanasiga (18,3 %) to‘g‘ri kelgan. (2-jadval).

2-jadval.


Olma mevali bog‘larda fitofag kanalarning uchrash darajasi va sistematik tahlili

(Toshkent viloyati, Farodis xirmoni f/x 2019-2022 yy.)

№	Kana turlari	Uchrash darajasi %
	Olma (*Malus domestica*) daraxtida	
1.	Olma qizil kanasi - *Panonychus ulmi* Koch. (*Metatetranychus ulmi* Koch.)	58,4
2.	Do‘lana kanasi - *Tetranychus viennensis* Zacher.	31,2
3.	Qo‘ng‘ir (Kulrang) meva kanasi - *Bryobia redikorzevi* Rech.	42,6
4.	Oddiy o‘rgimchakkana - *Tetranychus urticae* Koch.	72,8
5.	Bog‘ kanasi - *Schizotetranychus pruni* Oudms.	22,5
6.	Turkiston o‘rgimchakkanasi - *Tetranychus turkestani* Ug. et Nik.	18,3

Izoh: *1–2 ball (kuchsiz zararlanish). 3 ball (o‘rtacha zararlanish). 4–5 ball (kuchli zararlanish).*

Toshkent viloyati ma’lumotlarini Surxondaryo viloyati ko‘rsatkichlari bilan qiyoslaganda, iqlimiy omillar ta’sirida barcha turlarning uchrash darajasi Toshkent viloyatida o‘rtacha 4–7 % ga pastroq ekanligi kuzatildi, biroq turlarning joylashuvi o‘zgarishsiz qoldi. Surxondaryo viloyatining turli tumanlari sharoitida olma bog‘larida fitofag kanalarning tarqalish geografiyasi va miqdori atroflicha tahlil qilingan. (1-rasm).




1- rasm Kanalarning uchrashi va tarqalish miqdori

(Surxondaryo viloyati sharoitida 2021-2022-yy.)

Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, fitofag kanalarning eng yuqori tarqalish va uchrash miqdori Sho‘rchi tumanida (30,4 %) hamda Uzun tumanida (26,6 %) kuzatildi. Tadqiqotlarimiz tizimli ravishda olib borilgan Sariosiyo tumanida esa ushbu ko‘rsatkich 23,7 % ni tashkil etib, zararkunandalarning iqtisodiy zarar miqdor mezonidan (IZMM) oshib ketish xavfi doimiy mavjudligini ko‘rsatdi. Eng past tarqalish miqdori Denov tumanida (19,2 %) qayd etilgan bo‘lsada, umumiy

hisobda viloyatning barcha o‘rganilgan tumanlarida fitofag kanalarga qarshi uyg‘unlashgan kurash (IPM) tizimini o‘z vaqtida va tizimli joriy etish zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi. 2021-2022-yillarda Surxondaryo viloyatining turli tumanlari sharoitida olma bog‘larida fitofag kanalarning tarqalish geografiyasi va miqdori atroflicha tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, o‘rganilgan hududlar orasida fitofag kanalarning eng yuqori uchrash va tarqalish miqdori Sho‘rchi tumanida qayd etilgan bo‘lib, 30,4 % ni tashkil etadi. Tarqalish miqdori bo‘yicha keyingi o‘rinlarni Uzun tumani (26,6 %) hamda tadqiqot obyekti hisoblangan Sariosiyo tumani (23,7 %) egallaydi. Sariosiyo tumanidagi “O‘ljabek” fermer xo‘jaliklarida olib borilgan intensiv va an’anaviy olma bog‘laridagi kanalar populyatsiyasi ushbu umumiy fonda barqaror rivojlanayotganini ko‘rish mumkin. Eng past tarqalish ko‘rsatkichi esa Denov tumanida kuzatilgan bo‘lib, 19,2 % ni tashkil etgan. Havo haroratining o‘zgarishi olma bog‘laridagi fitofag kanalarning biologik faolligi va rivojlanish dinamikasini belgilovchi bosh omil ekanligi qayd qilingan.

Past haroratda (10°C) *Panonychus ulmi* turi *Tetranychus urticae* ga nisbatan yuqoriroq faollik (5-10 %) ko‘rsatdi, bu esa ushbu turning bahorgi erta muddatlarda rivojlanish xususiyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Haroratning 30°C gacha ko‘tarilishi har ikki turning ham rivojlanish darajasini eng yuqori cho‘qqiga olib chiqdi. Bunda oddiy o‘rgimchakkananing biologik faolligi 95 % ni, olma qizil kanasiniki esa 70 % ni tashkil etdi. Olingan ushbu qonuniyatlar olma agrobiotsenozida fitofag kanalarning ommaviy ko‘payish xavfini oldindan bashorat qilish hamda ularga qarshi kimyoviy va biologik ishlov berish muddatlarini ilmiy asoslashda fundamental asos bo‘lib xizmat qilgan. (2-rasm).



2-rasm. Olma qizil kanasini rivojlanishiga ekologik omillar ta’siri
(Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi O‘ljabek f/x 2021-2022-yy.).

Tadqiqot hududlarida kanalarga qarshi faol hayot kechiruvchi 6 ta oilaga mansub 11 turdagi entomofaglar va yirtqich kushandalar uchrashi aniqlandi. Ular

orasida kanaxur hasharotlar (akarifaglar)ning 10 ta turi hamda yirtqich kanalarning 2 ta turi muhim ekologik ahamiyatga ega. *Parasitoformes, Coleoptera, Hemiptera, Neuroptera* turkumlari vakillari, xususan, oddiy oltinko‘z (*Chrysopa septempunctata* Wes.) va yirtqich kanalar fitofag kanalarning tuxum, lichinka hamda yetuk zotlarini (imagolarini) jadal iste’mol qilib, ularning iqtisodiy zarar miqdor mezonidan (IZMM) oshib ketishi to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Olma mevali bog‘larda uchrayotgan entomofag turkumlarining uchrash darajalari o‘rganilganda may oyida Parasitoformes turkumiga mansub entomofaglar 13,1 %, Coleoptera turkumiga mansub entomofaglar 8,3 % ni *Hemiptera* turkumi mansub entomofaglar 6,7 % gacha, *Neuroptera* turkumiga mansub entomofaglar 22,6 % gacha uchrashi qayd etildi. Iyun oyida esa *Parasitoformes* turkumiga mansub entomofaglar 18,7 %, *Coleoptera* turkumiga mansub entomofaglar 12,4 % ni va *Hemiptera* turkumiga mansublari 8,5 % gacha va *Neuroptera* turkumiga mansub entomofaglar 28,3% gacha uchrashi qayd etilgan.

Keyingi tadqiqotlarimiz iyul oyida olib borildi, unga ko‘ra *Parasitoformes* turkumiga mansub entomofaglar 21,7 %, Coleoptera turkumiga mansub entomofaglar 13,3 % ni va *Hemiptera* turkumiga mansublari 10,5 % gacha va *Neuroptera* turkumiga mansub entomofaglar 29,7 % gacha uchrashi qayd etildi. Avgust oyida o‘tkazilgan tadqiqotlarimizda *Parasitoformes* turkumiga mansub entomofaglar 16,4%, *Coleoptera* turkumiga mansub entomofaglar 9,4 % ni va *Hemiptera* turkumiga mansublari 6,2% gacha va *Neuroptera* turkumiga mansub entomofaglar 33,2% gacha uchrashi keltirilgan (3-jadval).

3-jadval.

Olma bog‘larida entomofag turkumlarining oylar bo‘yicha uchrash darajasi dinamikasi

(Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi “Zevar” f/x 2022-y)

№	Entomofag turkumlari nomi	Uchrash darajasi, % da			
		May	Iyun	Iyul	Avgust
1	*Parasitoformes*	13,1	18,7	21,7	16,4
2	*Coleoptera*	8,3	12,4	13,3	9,4
3	*Hemiptera*	6,7	8,5	10,5	6,2
4	*Neuroptera*	22,6	28,3	29,7	33,2

Olma mevali bog‘larida fitofag kanalarga qarshi tabiiy kushandalarning uchrash darajasi hududlarning iqlimiy xususiyatlariga bog‘liq holda farqlanadi. *Neuroptera* turkumining *Chrysopa septempunctata* Wes. turi Toshkent (86,4 %) va Surxondaryo (90,7 %) viloyatlarida eng yuqori (75-91% ko‘p) uchrash ko‘rsatkichi bilan mutloq dominant entomofag ekanligi isbotlandi. *Coleoptera* turkumidan *Stethorus punctillum* Weise(48,7 va 58,7 %) va *Hemiptera* turkumidan *Nabis ferus* L. (51,5 va 57,6%) o‘rtacha uchrash guruhiga kirib, kanalarni tabiiy boshqarishda

muhim zaxira hisoblanadi. Tadqiqotda mintaqaviy o‘ziga xosliklar ham aniqlandi, jumladan, *Coccinella sempenpunctata* L. (47,1%) faqat Surxondaryo sharoitida, *Chilocorus bipuctulatus* L. (60,9%) esa faqat Toshkent viloyati agrobiosenozida uchrashi qayd etildi. Bu holat har bir hudud uchun o‘ziga xos biologik himoya sxemasini qo‘llash zarurligini ko‘rsatgan (4-jadval).

4-jadval.

Olma mevali bog‘larda kanalarning tabiiy kushandalarning asosiy turlari

